
Rishton tumanida “Besh tashabbus olimpiadasi” doirasida “Mushoira” va “Yosh kitobxon oila ” tanlovlarining sektor bosqichi o‘tkazildi

Yoshlar ishlari agentligi Rishton tuman bo‘limi va Ma’naviyat va ma’rifat markazi tuman bo‘limi bilan hamkorlikda tumandagi 1-sonli kasb-hunar maktabida “Besh tashabbus olimpiadasi” doirasida “Mushoira” va “Yosh kitobxon oila ” tanlovlarining sektor bosqichi o‘tkazildi Tanlovni o‘tkazishdan asosiy maqsad Yoshlar o‘rtasida she’rxonlik, g‘azalxonlik va kitobxonlik madaniyatini oshirish, ular orasida so‘z boyligini oshirish, targ‘ibot-tashviqot va ma’naviy-ma’rifiy ishlarni jonlantirish, yoshlarni “ommaviy madaniyat”ning zararli ta’sirlaridan muhofaza qilish, milliy g‘urur va o‘zlikni anglash, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat tuyg‘ularini shakllantirish, yosh oilalar o‘rtasida kitobxonlik madaniyatini yuksaltirish, har bir oila a‘zosini kitob mutolaasiga keng jalb etish, ular o‘rtasida o‘zaro mehr-oqibat, odob-axloq fazilatlarini rivojlantirish maqsadida tashkil etildi. O‘tkazilgan tanlovda “BONUJON” taxallusidagi shoira Mamajonova Xursanoy, shoir va yozuvchi Tolib Nosir, Turon yozuvchilar uyushmasi a‘zosi Dodoboyev Yuldoshali tomonidan yoshlar odilona baholanib borildi va yuqori natijalarni ko‘rsatgan yoshlar tanlovning tuman saralash bosqichida ishtirok etishi uchun yo‘llanmalar berildi.

2022-05-14 18:31:27